

Z.N.Tojiyeva

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti
professori, geografiya fanlari doktori
Toshkent, O‘zbekiston,
S.E.Samandarova

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti
Geografiya va geoaxborot tizimlari fakulteti 4-bosqich talabasi
Toshkent, O‘zbekiston

TOSHKENT VILOYATI AHOLISI KO‘PAYISHI VA UNI TOZA ICHIMLIK SUVI BILAN TA’MINLASH MUAMMOLARI

Annotatsiya: Maqolada demografik salohiyati yuqori bo’lgan hududlardan Toshkent viloyati aholisining o‘sishi dinamikasi va undagi toza ichimlik suvi ta’midotidan foydalanishning xududiy jihatlarini o’rganish va tadqiq qilish o‘z aksini topgan.

Kalit so‘zlar: aholi, aholi soni dinamikasi, aholi o‘sishi, toza ichimlik suvi, ta’minlash, demografik salohiyat.

З.Н.Таджиева

**Национальный университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека
Профессор, доктор географических наук
Ташкент, Узбекистан,
Самандарова С.Э.**

**Национальный университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека
Студентка 4 курса факультета географии и геоинформационных систем
Ташкент, Узбекистан**

ПРОБЛЕМЫ РОСТА НАСЕЛЕНИЯ ТАШКЕНТСКОЙ ОБЛАСТИ И ОБЕСПЕЧЕНИЯ ЕЕ ПИТЬЕВОЙ ВОДОЙ

Аннотация: В статье отражены исследования динамики прироста населения Ташкентской области из районов с высоким демографическим потенциалом и использования территориальных аспектов чистой питьевой воды.

Ключевые слова: население, динамика населения, прирост населения, чистая питьевая вода, обеспеченность, демографический потенциал.

Z.N. Tajiyeva

**National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek
Professor, Doctor of Geography
Tashkent, Uzbekistan,
S.E. Samandarova**

**National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek
4th year student of the Faculty of Geography and Geoinformation Systems
Tashkent, Uzbekistan**

PROBLEMS OF POPULATION GROWTH IN THE TASHKENT REGION AND PROVIDING IT WITH CLEAN DRINKING WATER

Abstract: The article reflects studies of the dynamics of population growth in the Tashkent region from areas with high demographic potential and the use of territorial aspects of clean drinking water.

Keywords: population, population dynamics, population growth, clean drinking water, security, demographic potential.

Kirish. Geografik ta’lim tizimida aholi haqidagi bilimlar muhim o’rinni egallaydi. Yer kurrasi, uning alohida hududlarini, davlatlarni, geografik tahlil etish uch qismidan iborat bo’lib, ular o’rganilayotgan hududning tabiatni, aholisi va xo’jaligini tashkil etadi. Aholi deganda ma’lum hududda yashovchi kishilar guruhi tushuniladi. Mazkur guruhlar zaminida jamiyat shakllanadi. Yer kurasida insoniyat paydo bo’lganidan, to hozirga qadar bir qancha davrlar o’tdi. Ana shunday davrlarda inson, jamiyat o’z mavjudligni saqlash va rivojlanish uchun muntazam harakat qilib keldi. Ushbu jarayonda aholi tabiiy resurslardan foydalanib, moddiy ehtiyoji uchun zarur vositalarni yaratdi, xo’jalik tizimini barpo etdi, rivojlantirdi. Ana shunga monand respublikamizda demografik salohiyati yuqori bo’lgan Toshkent viloyati aholi soni muntazam ko‘payib borishiga qaramasdan, tabiat inom etgan resurslardan muntazam samarali foydalanib kelmoqda. Bunday resurslar sirasiga avvalo aholini toza ichimlik suvi bilan ta’minalashni kiritish maqsadga muvofiq.

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi. Bugungi kunda global ahamiyatga ega muammolardan biri, bu iqlim o‘zgarishi va yana uning salbiy tomoni isishi bilan bog‘liq muammolar dunyo hamjamiyatining diqqat e’tiborida bo‘lib kelmoqda. Aynan iqlim o‘zgarishi sharoitida suv ob’ektlari, suv resurslari va ularning hududiy tarkibini tadqiq etish o‘ta muhim vazifalardandir. Bunda ayniqsa, demografik salohiyati yuqori bo’lgan hududlar va ular aholisini toza ichimlik suvi bilan ta’minalash, suv ta’minoti masalalarini birgalikda o‘rganish dolzarb masala bo‘lib qolmoqda. BMTning “Atrof-muhit muhofazasi” dasturi ma’lumotiga ko‘ra, hozirda dunyodagi mavjud daryolarning yarmi jiddiy ifloslangan. Yer shari aholisining qariyb 40 foizi toza ichimlik suvi yetishmasligidan aziyat chekmoqda. Har yili toza ichimlik suvining tanqisligi tufayli 1,2 mln. kishi turli xil xastaliklarga duchor bo‘ladi, 5 mln. kishi ifloslangan va sifatsiz suvdan iste’mol qilishga majbur”. Ana shunday vaziyatlarni oldini olish uchun avvalo o’zimiz yashab turgan kichik hududlar muammolarini bartaraf qilish masalaning dolzarbligini belgilaydi

Maqsad va vazifalari. Demografik salohiyati yuqori bo'lgan hududlar suv resurslari shakillanishida geografik shart-sharoitlarni o'rganish orqali ichimlik suvi ta'minotining hududiy hususiyatlarini baholash, demografik omillarning ro'lini tahlil qilish va bunda Toshkent viloyati ichimlik suvi ta'minotining xududiy taqsimlanishi va undan samarali foydalanishning istiqbol yo'nalishlarini belgilashdan iborat.

Natijalar va ularning muhokamasi. Toshkent viloyati mamlakatda alohida demografik salohiyatga ega hudud bo'lib, aholi soni yildan –yilga ko'payib bormoqda. Jumladan, viloyatda jami aholi soni 2022 yil holatiga ko'ra, 2925762 nafarni tashkil qiladi, shundan ayollar 1458091 nafar, erkaklar 1467671 nafar. Viloyat aholisi juda tez suratlar bilan o'smoqda. Qishloq tumanlari miqyosida aholi sonining jadal suratlar bilan o'sib borishini kuzatish mumkin. Bu ko'rsatgich Parkent, Bekobod, Bo'ka, Oqqa'rg'on tumanlarida yuqoriroqdir. Ko'rileyotgan 20 yildan ortiq vaqt davomida ularning aholisi 1,5-1,8 marta ko'paygan. Xozirda Quyichirchiq, Bo'stonliq tumanlarida demodrafik o'sish ko'rsatkichlari biroz pastroqligini ko'rish mumkin.

Toshkent viloyatining umumiyligi maydoni 15.25 ming km²ga teng bo'lib, aholining zichligi o'rtacha 1 km² 195 kishini tashkil etadi. Viloyatda tekislik, tog', va tog' oldi hududlarida joylashgan aholi o'sishidinamikasi va zichligiga ko'ra bir-biridan keskin farq qiladi. Masalan, tekislik yoki shaharlarda yashaydigan aholi o'ta zinch joylashgan, Chirchiq shahrining maydoni 0.03 ming km², zichligi 1 km² ga 5771 kishini tashkil etadi. Bunday zinch joylashuv birmuncha noqulayliklarga sabab bo'ladi. Viloyat shaharlarining aholisi aksariyati shunday zinch joylashgan. Qishloq tumanlari maydoni o'rtacha tahminan 1.0 ming km² ni tashkil etgan holda, u eng kichik Chinoz (0.34 ming km²) tumandagi eng yirik – Bo'stonliq tumanigacha farqlanad; ular orasidagi tafovut 14 martaga teng. Uning maydoni 4,93 ming km² bo'lib, 1 ta shahar, 17 ta shaharcha, 29 ta qishloq aholi punktlarini o'z ichiga oladi. Maydoni katta bo'lishiga qaramasdan tog'li hududda joylashgan Bo'stonliq tumanida aholi siyrakdir. Shuningdek aholisi zichligi 1 km² ga 35 kishini tashkil etadi. Bunday katta geografik koeffitsient viloyat hududining tabiiy geografik

jihatdan turli-tumanligidan, ular ishlab chiqarish va aholini hududiy tashkil etish xususiyatlaridan darak beradi. Aholi zichligi ham shu asnoda o'zgarib turadi. Xozirgi paytda eng yuqori zichikni Toshkent, Zangiota tumanlarida ko'rish mumkin. Qibray, O'rtachirchiq, Yangiyo'l, Chinoz tumanlarida ham aholi nisbatan zich joylashgan. Tog'li hududlarda joylashgan Ohangaron va Bo'stonliq tumanlarida esa aholi siyrak joylashgan. Aholining zich yoki siyrak joylashushi aksariyat hududlarda suv bilan chambarchas bog'liqdir. Qaerda suv bilan ta'minlanish yaxshi bo'lsa, o'sha hududlarda aholi zichligi yuqori va o'sish dinamikasi ham katta bo'ladi.

Har bir hududda yashovchi aholi qadim zamonlardanoq suvning ahamiyatini bilib, suvgaga yaqin joyda o'z ehtiyojini qondirish maqsadida turli hil manzilgohlar qurib yashaganlar va ular suv bor joyda o'z xo'jaligini shakllantirganlar. Ongli aholi doimiy ravishda suvdan to'g'ri foydalanib, suv ombori yoki daryolarga yaqin joylarda dam olish maskanlarida, sixatgohlarda madaniy xordiq chiqarishga harakat qilishiadi. Toza oqar suvda cho'milib turish aholi salomatligini saqlashda va chiniqishda eng asosiy vositadir. Suv doimiy ravishda dunyodagi barcha tirik mavjudotlarning yashashi uchun tabiat tomonidan in'om etilgan oliy ne'matdir. Bugungi kunda biz kundalik hayotimizni suvsiz tasavvur qilishimiz qiyin.

Tadqiqot ob'ekti bo'lmish Toshkent viloyati respublikada eng suv bilan ta'minlanishi yuqori darajada bo'lgan hudud hisoblanadi. Mazkur hududda joylashgan asosiy yirik suv manbaalari bular: Chirchiq va Ohangaron daryolari bo'lib, ular demografik salohiyati oshib borayotgan shahar va qishloqlarni suv bilan ta'minlashga xizmat qilmoqda. Jumladan, viloyatning Chirchiq daryosi Ohangaron daryosiga qaraganda, gidrotexnika resurslariga boy hisoblanadi. Gidroenergiya resurslaridan oqilona foydalanish maqsadida Chirchiq daryosida – Chorbog', Xo'jakent, G'azalkent GESlari qurilgan. Iqtisodiy jihatdan hududning 65-70 foizini sug'orish va 30 foizini xo'jalik uchun suvni Chirchiq daryosi ta'minlaydi. Chirchiq daryosida dehqonchilik va chorvachilikdan tashqari Toshkent, Chirchiq, Yangiyo'l kabi yirik shaharlarning aholisi va sanoat korxonalarini suv bilan ta'minlaydi.

Suv resurslaridan oqilona va to'g'ri foydalanish uchun Chirchiqning yuqori oqimida Chotqol va Pskom tog' daryolari bilan to'yinuvchi Chorbog' suv ombori qurilgan. Suv omboridan chiqayotgan suvdan Chirchiq daryosi hosil bo'ladi. Unga pastroqda Ugom daryosi kelib quyiladi. Oqimning quyi qismida ya'ni Chirchiq daryosining kanallari, Chirchiq-Bo'zsuv suv energetikasi qismlarida 17 turdag'i har xil quvvatga ega bo'lgan GES mavjud, bu GEStarda suv resurslaridan aholi uchun turli maqsadlarda samarali foydalaniladi. Aholini toza ichimlik suvi bilan ta'minlashda viloyatda joylashgan yana bir yirik daryolardan bir bu Ohangaron daryosi bo'lib, uning suvlaridan to'g'ri va oqilona foydalanish maqsadida Tuyabo'g'iz suv ombori (Toshkent dengizi) va Ohangaron suv ombori barpo etilgan. Xozirgi kunda suv omchorlaridan aholi qishloq xo'jaligi, maishiy, sanoat korxonalarini va boshqalarda samarali foydalanmoqda.

Xozirgi davrga kelib, aholining ichimlik suv bilan ta'minlanganlik darajasini oshirish va uning sifatini yaxshilash borasida juda ko'p islohatlar amalga oshirilmoqda. Aholining ichimlik suvi bilan ta'minlanganlik darajasini oshirish maqsadida amalga oshirilgan ishlar natijasida hududlardagi ichimlik suvi bilan bog'liq muammolari bartaraf qilinmoqda. 2021 yil yakuni bo'yicha viloyat aholisining toza ichimlik suvi bilan ta'minlanganlik darajasi 70,35 % ga yetdi. Ichimlik suv ta'minotida sarflanayotgan suvni nazorat qilish va ortiqcha suv yo'qotishlarning oldini olish maqsadida suv inshootlari, magistral suv tarmoqlari, xonodon, mahalla va ko'cha boshlariga zamonaviy suv hisoblagichlari o'rnatilib, mahsus nazoratchilar tomonidan kuzatilib borilmoqda.

1-jadval

**Toshkent viloyati aholisini toza ichimlik suvi bilan ta'minlanganlik darajasi,
(2022 yil)**

Hudud	Jami aholi soni	Ta'minlangan aholi sini	Ichimlik suvi bilan ta'minlanganlik %	Ko'tarilgan suv m ³
Toshkent viloyati	2940884	2068969	70,35	146200883,4
Nurafshon shahar	52559	24561	46,73	1879463,8
Angren shahar	193728	169529	87,51	11706968,5
Bekobod shahar	97891	96080	98,15	5114865,2
Olmaliq shahar	135673	135673	100	14066064,1
Chirchiq shahar	164172	153201	93,32	28151854

Yangiyo'l shahar	66138	66138	100	6983617
Ohangaron shahar	39863	37828	94,9	5449387,7
Ohangaron tuman	97968	73157	74,67	4675233,3
Oqqa'rg'on tuman	107011	70986	66	2472012,4
Bo'stonliq tuman	172210	115461	67,05	8295313,7
Bo'ka tuman	129256	65074	50,35	2604671,7
Bekobod tuman	161446	81784	50,66	774334,5
Parkent tuman	159545	108264	67,86	3254096,3
Pskent tuman	103217	81709	79,16	2676032,3
Yuqorichirchiq tuman	136046	30175	22,18	3663110,4
O'rtachirchiq tuman	132285	35306	26,69	1819943,6
Quyichirchiq tuman	111240	16794	15,1	947227,9
Zangiota tumani	171507	171507	100	8231576,8
Yangiyo'l tuman	211793	129926	61,35	6062079,4
Qibray tuman	171797	169968	98,94	20044213,3
Chinoz tumani	138418	83448	60,29	4263905,4
Toshkent tumani	186443	164555	88,26	2472395,7
Krasnogorsk				592516,6

Toshkent viloyati Suvoqova MCHJ ma'lumotlari

To'plangan ma'lumotlarning tahlilidan bilishimiz mumkinki, 2021 yil yakuni bo'yicha viloyat aholisining ichimlik suvi bilan ta'minlanganlik darajasi 70,35 % ga yetib, shundan eng yaxshi ta'minlangan hudud Olmaliq va Yangiyo'l shaharlaridir. Shaharlarda toza ichimlik suvi bilan ta'minlanish darajasi 100% dir. Ushbu hududlar viloyatda joylashgan shaharlar ichida demografik salohiyati bo'yicha ham ajralib turadi. Qishloq tumanlari bo'yicha ichimlik suvi bilan eng yaxshi ta'minlangan hudud bu Zangiota tumanidir. Ushbu tumanda ham ta'minlanganlik darajasi 100% dir. Viloyatdagi ayrim shaharlarda ham ichimlik suvi bilan ta'minlanganlik darajasi past. Bunga misol sifatida, Nurafshon shahrini olsak bo'ladi. Ushbu shahar 2017-yilda o'z faoliyatini boshlagan ungacha Bo'ka nomi bilan faoliyat yuritgan. Ushbu hududda aqilli shahar texnologiyalari joriy qilinishi ko'zda tutilgan. Agar aqilli shahar tehnologiyasi ushbu shaharga joriy qilinsa, o'ylaymizki hududlrdagi ichimlik suvi sarfida yo'l qo'yilayotgan muammolar bartaraf etilardi.

Ma'lumot o'rnida aytish kerakki, Nurafshon shaharida xozirgi kunda ichimlik suvi bilan ta'minlanganlik darajasi 46,73 foizga yetgan. Demak aholiga nisbatan hisoblaganda, uning aholi soni 52559 kishi bo'lsa, ichimlik suvi bilan ta'minlangan

aholi 24561 nafarni tashkil etadi. Keyingi o'rnlarda, Angren shahrini tahlilida ko'rishimiz mumkinki, xozirgi kunda 193728 nafar aholi istiqomat qiladigan ushbu shaharning toza ichimlik suvi bilan ta'minlanganlik darajasi 87,51 foizni tashkil etadi. Aholi soni bo'yicha esa, 169529 nafar aholi toza ichimlik suvi bilan ta'minlangan. Qishloq tumanlariga e'tiborni qaratsak, Ohangaron tumanining aholi soni 97968, toza ichimlik suvi bilan ta'minlangan aholi soni 73157, ta'minlanganlik darajasi esa 74,67 foizni ko'rsatmoqa. Shu o'rnlarda aytish joizki, ichimlik suvi bilan kam ta'minlangan hududlar talaygina. Bunga misol qilib, Yuqorichorchiq (22,18 %), O'rtachirchiq (26,69 %), Quyichirchiq (15,1 %) tumanlarini olishishimiz mumkin. Ana shunday holatlarni yaxshilash uchun joylarda turli hil islohatlar olib borilmoqda.

Tadqiqotga mos holatda viloyatda joylashgan qishloq hududlarining muammolari o'rganilganda, toza ichimlik suvi bilan eng kam ta'minlangan tumanlardan biri Quyichirchiq ekanligi aniqlandi. Uni toza ichimlik suvi bilan ta'minlanganlik darajasi 15,1%, ya'ni 111240 nafar aholidan 16794 nafari ichimlik suvi bilan ta'minlangan. Quyichirchiq tumanida doimiy aholi soni 105 538 nafarni tashkil etadi. Tumanda 21549 ta xonodon mavjud bo'lib, shulardan 16618 nafar aholi ya'ni 15,1 % markazlashgan ichimlik suvi bilan ta'minlangan. Xonadonlar bo'yicha 4829 ta xododon ichimlik suvi tarmog'iga ulangan.

Xulosa. Toshkent viloyati poytaxtga eng yaqin hududlardan biri bo'lganligi hamda aholisi tez ko'payayotgan, demografik salohiyati yuqori bo'lgan hududlardan bo'lganligi bois ham birinchi navbatda ushbu hududdagi ichimlik suvi bilan bog'liq mavjud muammolarni bartaraf qilish lozim. Muammolarni bartaraf qilish uchun o'rganilgan ma'lumotlardan foydalanish va hududning demografik holatidan kelib chiqib ish tutish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar ruyxati

1. Soliyev A., Nazarov M., Qurbonov Sh. O'zbekiston hududlari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi.Toshkent, 2010 y., 333-bet.

1. Tojiyeva Z.N.. Aholi geografiyasi.-T.: “Fan va tehnologiya”, 2019. 368 bet.
2. Тожиева З.Н. Марказий миңтақа аҳолисининг ўсиш хусусиятлари//Ўзбекистон География жамияти ахбороти. 30-жилд. Илмий мақолалар тўплами. – Т., 2008.
3. Zulkhumor Tojiyeva, Lutfullo Ibragimov. LABOUR MARKET AND EMPLOYMENT IN UZBEKISTANGeografický časopis / geographical journal 73 (2021) 4, 001-002. doi: <https://doi.org/10.31577/geogrcas.2021.73.4.00>//P. 359-374